

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева**

Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so‘zi va uning morfologik belgilari xususida .....	208
<b>M.M.Asrонова</b>	
O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar .....	213
<b>О.М.Khudoyberdieva</b>	
The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology .....	218
<b>G.S.Xolmurotova</b>	
Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
<b>N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva</b>	
Alisher Navoiyning “Nasoyim UI-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili .....	226
<b>N.A.Abdullayeva</b>	
Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili .....	229
<b>M.T.Qodirova</b>	
Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
<b>D.N.Satimova</b>	
Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar .....	240
<b>V.A.Tangriyev</b>	
Paulo Koelonning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar .....	247
<b>V.A.Giyosova</b>	
Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi .....	254
<b>R.Kahramanova</b>	
The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
<b>I.M. Ataboyev</b>	
Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish .....	264
<b>M.E.Qodirova</b>	
O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi .....	270



УО'К: 811.512.133.43

**NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA “XUD” SO‘ZI VA UNING  
MORFOLOGIK BELGILARI XUSUSIDA**

**ABOUT THE WORD "KHUD" AND ITS MORPHOLOGICAL SIGNS IN NAVOIY'S EPIC  
"SADDI ISKANDARI"**

**О СЛОВЕ «ХУД» И ЕГО МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЗНАКАХ В ЭПОСЕ НАВОИ  
«САДДИ ИСКАНДАРИ»**

Alimova Zarifa Vaxobovna 

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida **xud** so'zi, uning morfologik belgilari, gapda qanday vazifa bajarishi xususida so'z boradi. Asardagi **xud** so'zining olmosh, ravish turkumlarida kelganda uning leksik-semantic xususiyatlari, forscha-tojikcha lug'atlardagi izohlarga asoslanganligi, forscha so'zlarning Navoiy asarlarini izohlug'atidagi leksik ma'nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. Fors tilida **xud** so'zi faqat olmosh turkumiga tegishli ekani, shuningdek gapda egalik qo'shimchalarini qabul qilib kelishi haqida ham so'z yuritilgan. Maqolada keltirilgan forscha so'zlarning leksik va semantik xususiyatlari izohlangan.*

**Abstract**

*This article talks about the word "khud", its morphological features and function in the sentence of Alisher Navoi's epic "Saddi Iskandari". When using the word "khud" in the categories of pronouns and adjectives, its lexical-semantic features are presented, based on comments in Persian-Tajik dictionaries, and the lexical meanings of Persian words in the annotated dictionary of Navoi's works. We are also talking about the fact that the word "khud" in the Persian language refers only to a group of pronouns, and also takes possessive suffixes in a sentence. The lexical and semantic features of the Persian words mentioned in the article are explained.*

**Аннотация**

*В данной статье идёт речь о слове «худ», его морфологических признаках и функции в предложении эпоса Алишера Навои «Садди Искандари». При использовании слова «худ» в категориях местоимений и прилагательных представлены его лексико-семантические особенности, основанные на комментариях в персидско-таджикских словарях, и лексические значения персидских слов в аннотированном словаре произведений Навои. Также идёт речь о том, что слово «худ» в персидском языке относится только к группе местоимений, а также принимает в предложении притяжательные суффиксы. Объясняются лексические и семантические особенности персидских слов, упомянутых в статье.*

**Kalit so'zlar:** so'z haqida tushuncha, olmosh, o'zlik olmoshi, egalik qo'shimchalari, ravish, kishilik olmoshlari, izofiy birikma.

**Key words:** concept of the word, pronouns, personal pronouns, possessive suffixes, adverbs, izophetic compound.

**Ключевые слова:** понятие слова, местоимения, личные местоимения, притяжательные суффиксы, наречия, изафетное сочетание.

**KIRISH**

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy asardir. Uning bu dostoni boshqa asarlari singari dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. "Saddi Iskandariy" dostonini hikmatlar majmuasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyotshunos olim V.Rahmonning fikricha, bu dostonda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, maishiy, diplomatik, ma'rifiy-ma'naviy muammolar ana shu dostonda btun kengligi bilan qo'yilavergan va hal qilinavergan[5,50]. O'zbek tilshunosligida ko'zga ko'ringan olim A.Nurmonovning ta'kidlashicha, jahon madaniyatini tarixida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan Alisher Navoiy butun faoliyatini o'zbek madaniyatini dunyoga tanitish, o'zbek tili mavqeini baland ko'tarishga bag'ishladi[4,73].

**TILSHUNOSLIK**

Navoiy zullisonayn shoir bo'lgani bois, o'z asarlarida turkiy so'zlar bilan bir qatorda forsiy va arabiylardan ham keng foydalangan. Xususan, ot, sifat, olmosh, ravish, fe'l turkumlarining turkiydan tashqari forsiy va arabiylardan foydalangani asarning jozibasini yanada oshirgan.

**ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Hozirga qadar jahon va o'zbek tilshunoslida Navoiy asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish keng ko'lamma olib borilmoqda. O'zbek tilshunoslida Navoiy asarlarini o'ganish, ularni lingvistik tadqiq etish XX asrning 40-yillardan boshlangan. Navoiyshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunoslardan A.Hayitmetov, B.Abdullayev, I.Haqqul, S.G'aniyeva, A.Qayumov, Yo.Is'hoqov, H.Jo'rayevlarning xizmatlari katta. Navoiy asarlarini lingvistik jihatdan tadqiq etgan tilshunoslardan B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, A.Karimov, Z.Isaqova, D.Abduvaliyeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulovlar Navoiy asarlarining leksik-semantic xususiyatlarni tadqiq etishga munosib hissa qo'shganlar.

Erkin Vohidov Alisher Navoiy haqida bunday yozadi: Navoiy turkiy tilning butun nazokatini, so'zga boyligini "Muhkamat ul-lug'atayn" dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar. O'zbekning sodda, to'pori so'zlarini ham, she'rga solish mumkin bo'lmagan darajada oddiy va jo'n gaplarni ham nozik g'azalga krita olganlarki, bundoq sehrdan lol bo'lmay ilojo'yq[3,12-13].

Adabiyotshunos olim Vahob Rahmon Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoniga quyidagicha baho beradi: "Bu asar kitobxonlarni to'la-to'kis qoniqtiradigan asardir. Bir qarasangiz, voqeahodisalarning kompozitsion burmaliligiga asoslangan sarguzashtlar josibasi ko'zingizni oladi, oqilonha mushohadalar bilan yondashsangiz hayotiy yangi-yangi hikmatlar xazinasiga kirib mutafakkir daho bilan yurakdan sirlashasiz. Ana shu keying ma'noda men "Saddi Iskandariy" dostonini Alisher Navoiy Iskandar hikmatnomasi – hikmatlar shodasi tarzida yaratgan, degan bo'lardim. Makedoniyalik Iskandar bu asarning bosh qahramoni uchun nomigagina prototipdir, xolos. Bu sharq mutafakkirlari aql-zakovati bilan yaratilgan orzubon shoh timsoli, xaloskor, najotkor, odil, hikmatparast hukmdor siymosidir" [5,46].

M.Rajabova Navoiy ijodida motam marosimiga oid urf-odatlarning badiiy talqini haqida so'z yuritar ekan, "Saddi Iskandariy" dostonida ham shu urf-odat bilan bog'liq baytlar borligini ta'kidlaydi:

*Aso tutti, dog'i belin bog'ladi,*

*Tushub yo'lga garduni chin dog'ladi...*

*Yaqa chokiga dast topsam edi,*

*Qaro qiz osib tanni yopsam edi*[6, 84-86].

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Navoiy asarlarida **xud** so'zi izohi mazkur maqolaning asosiy maqsadi qilib belgilab olindi. Maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan xud so'zi, bu so'zning turli so'z turkumlariga taalluqli bo'lgan o'rinnari va ular ishtirokidagi baytlardan misollar keltiramiz.

Forsiy **xo'd** (xud) o'zlik olmoshi o'zbek tilidagi o'zlik olmoshiga to'g'ri keladi. Fors tilida **xo'd** (xud) o'zlik olmoshi gaplarda egalik qo'shimchalarini qabul qilgan holda keladi. Masalan:

*xo'dam* – خودم – o'zim

*xo'demon* – خویمان – o'zimiz

*xo'dat* – خودت – o'zing

*xo'deton* – خویتان – o'zingiz

*xo'dash* – خوش – o'zi

*xo'deshon* – خویشان – o'zları

M.Abdusamatov ta'kidlaganidek, **xo'd** o'zlik olmoshi gapda mustaqil holda hamda biror otga izofa orqali birikib keladi. Biror otga izofa orqali bitikib kelgan paytda bu olmosh gapda aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin [1,114]. Masalan:

*Do'stim o'z kitobini ymenga berdi* – من داد - دوستم کتاب خودرا په

*dustam ketob-e xo'dro be man dod.*

Yoki:

*Biz o'z Vatanimizni sevamiz* – ما میهن خودرا دوست داریم

*Mo mihan-e xo'dro dust dorim.*

ANATILda **xud** so'ziga quyidagi izohlar keltirilgan: *albatta, haqiqatan; yolg'iz, faqat; o'zicha; xuddi, kabi, dek; kabi, o'zginasi; hech, hech qanday* [2,424].

Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da *xud so'ziga quyidagicha izoh keltirilgan: xud - goh xud, goh bexud iborasi tarkibida ishlataladigan bu tojikcha birlik o'z ma'nosini ifodalaydi; yuqoridagi ibora "goh hushi o'zida, goh hushini yo'qotib" ma'nosini ifodalaydi. Xud-bexud – bu ravish tojikcha o'z ma'nosini ifodalaydigan xud birligiga be- old qo'shimchasini qo'shib takrorlab tuzilgan bo'lib, "hushi goh o'zida, goh hushsiz holatda" ma'nosini anglatadi [7,243].*

*Quyoshingg'a xud mone'i yo'q edi,*

*Hijobi aning o'zlugi-o'q edi* (Saddi Iskandariy, 6-bet)

Ma'nosi: *Yuzingdag'i to'siq ko'tarila borgani sari, uning ishq'i o'ti yanada ziyoda bo'ldi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 9-bet).

Nasriy tabdilga e'tibor beriladigan bo'lsa, *xud olmoshi tabdil qilinmagan*. Agar *xud olmoshi tarjimasi yoki tabdili berilganda tabdilga putur yetgan bo'lishi mumkin edi.*

*Bu uch yil aro ko'ngliga yetmayin,*

*Xayolig'a balkim xutur etmayin.*

*Ki, Dorog'a bo'lg'ay ishi ehtiyoj,*

*Anga xud ne etgayki, bergay xiroj* (Saddi Iskandariy, 104-bet).

Ma'nosi: *Bu uch yil ichida o'zining Doroga muteligi, qilgan ishi yuzasiddan unga hisob berishi va xiroj to'lashi lozimligi Iskandarning ko'nglidan ham o'tmagan va xayoliga xavf ham solmagan edi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 100-bet).

Tabdildan ma'lum bo'ladiki, *xud so'zi aynan o'z yoki xud olmoshlari orqali izohlanmasdan, shu olmosh orqali Iskandar oti anglashilgan.*

*Ki: «Ne telba fahm ettim oni, ne mast,*

*Xud ermas yana tifli g'aflatparast.* 109

Ma'nosi: *-Uni na telba va na mast deb fahmladim, menimcha u g'aflatparast ham, go'dak ham emas* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 104-bet).

Mazkur ikkilik tarkibidagi *xud olmoshi o'z yoki xud so'zlar bilan emas, 3-shaxs birlikdagi u olmoshi orqali izohlangan*. Bu yerdagi tabdil juda aniq so'zlar orqali ifodalangan. Agar tabdil "*menimcha u o'zi g'aflatparast ham, go'dak ham emas*" deb izohlanganda tabdil uslubiy jihatdan buzilishi mumkin edi [8,640].

Dostonda shunday holatlar b'ladiki, uning ma'lum bir baytidan aniq tabdil chiqarish mushkul. Aniq va to'g'ri tabdil chiqarish uchun ikkilik emas, to'rtlikka murojaat qilishga to'g'ri keladi. Chunki, ma'lum baytning mazmuni avvalgi baytdan kelib chiqishi mumkin. Jumladan:

*Dedikim: «Payom etti Doroyi dahr,*

*Adolat bila kishvaroroyi dahr,*

*Ki, rasmi qadimiysi, derlar xiroj,*

*Ki, yo'q bizga olmoqqa xud ehtiyoj* (Saddi Iskandariy, 111-bet).

Ma'nosi: E'chi so'zladi: - O'z adolati bilan dunyodagi barcha mamlakatlarni obod etuvchi jahon shohi Doro salom aytdiki, xiroj degan narsa qadimiylar rasm-rusumlardan bo'lib, bizning uni olishga ehtiyojimiz yo'qdir (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 106-bet).

To'rtlikka e'tibor beradigan bo'lsak, "Ki, yo'q bizga olmoqqa xud ehtiyoj" misrasi "*bizning uni olishga ehtiyojimiz yo'q*" deyilgan. Bu esa "*xiroj degan narsani olishga hech qanday ehtiyoj yo'q*" degan ma'noni ifodalaydi. Demak, *xud so'zi ehtiyoj so'zi bilan bog'liq bo'lib, aniqlovchi vazifasida kelgan*. Bundan ko'rindaniki, *xud olmoshi faqat shaxslargagina emas, narsalarni ifodalashda ham qo'llanilgan*. Bugungi kunda badiiy adabiyotda ham, so'zlashuvda ham o'z olmoshini nafaqat shaxslarga, balki narsalarga nisbatan ishlatalish hollari ham ko'p uchraydi [10,124]. Masalan:

-*Yana nimalarni bilasiz?*

-*Bilganim shu o'zi* (Og'zaki so'zlashuvda).

Yoki:

-*Kamzulingni ber, yuvib qo'yay?*

-*Kamzulim o'zi qani?* (Og'zaki so'zlashuvda).

*Va gar raf' qilmay ko'nguldin xilof,*

*Ayon qilmasang ajzinga e'tirof.*

*Nizo' o'lg'on o'lsa muakkad sanga*

*Ki, xud yo'q ul andeshaq'a had sanga* (Saddi Iskandariy, 112-bet).

## TILSHUNOSLIK

Ma'nosi: *Agar vahima qilib, iztirobga tushsang yoki shu amrimizdan bo'yin tovlasang yoxud bu so'zlarimzni rad etishni zarur deb topsang, bu, endi nodonligingning belgisi, yosh ekaningning nishonasidan boshqa narsa emas* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 106-107-betlar).

To'rtlikdan anglashilishicha, to'rtlik oxiridagi "Ki, **xud** yo'q ul andeshag'a had sanga" misrasi "nodonliging va yoshligingning nishonasidan boshqa hech narsa emas" deb hech bo'lishsizlik olmoshi orqali tabdil qilinganda, shu olmoshning aniq izohi kelib chiqqan bo'lardi.

*Va gar **xud** o'zin bilsa mag'lubdur,*

*Nasihat bila iktifo xo'bdur* (Saddi Iskandariy, 122-bet).

Ma'nosi: *Agar uning ustidan g'alaba qozonishga ko'zi yetsa, u paytda olishishga bel bog'lasa durust* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 116-bet).

Bu baytdagi tabdil to'g'ri berilgan deyish mumkin. Chunki **xud** olmoshi baytning tabdilida keltirilgan *uning ustidan g'alaba qozonishga (o'zining) ko'zi yetsa* qismi bilan bevosita bog'liqligi ko'rini turibdi.

*Ki, Doro yig'ib yer yuzidin sipoh,*

*Buyon aylamish azm beishtiboh.*

**Xud** ermas edi g'ofil ul holdin,

*Ishida yiroq erdi ehmoldin* (Saddi Iskandariy, 127-bet).

Ma'nosi: *Doroning yer yuzidan lashkar to'plab, u tomonga azm etganini Iskandar allaqachon eshitgan va bu holatdan ga'flatda emas, ishida mujmallik va hardamxayollik ham yo'q edi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 120-121-betlar).

Mazkur to'rtlikdagi "**xud** ermas edi g'ofil ul holdin" misrasida **xud** olmoshi Iskandar otiga bog'liq holda qo'llanilib, u, *uning o'zi ma'nolari anglashilgani ma'lum bo'ladi*.

*Bu yerdin yonarning **xud** imkoni yo'q,*

*Nabard aylasam g'ayri nuqsoni yo'q!*» (Saddi Iskandariy, 129-bet).

Ma'nosi: *Endu bu jang maydonidan qaytishning hech imkoni yo'q. Jang boshlasam-chi, shikast yeyishdan o'zgasi nasib bo'lmaydi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 123-bet).

Tabdildan ko'rindiki, baytning "*Bu yerdin yonarning **xud** imkoni yo'q*" deyilgan birinchi misrasi "*bu yerdan (jang maydonidan) qochishning hech imkoni yo'q*" deya izohlangan, ya'ni **xud** olmoshi *hech* olmoshi orqali tabdil qilingan. Balki bu ham to'g'ridir. Bizningcha, baytning shu qismini "*Bu yerdan (jang maydonidan) qochish imkonining o'zi yo'q, qochishning o'zi bo'lmaydi*" deya tabdil qilinganda aynan **xud** olmoshining mazmun-mohiyati anglashilardi [9,381].

*Ulug'rog'ni sayd etti ul nav' chust*

*Ki, go'yokim ul **xud** yo'q erdi nuxust* (Saddi Iskandariy, 130-bet).

Ma'nosi: ...va burgut birdan katta kaklikka chang solib, uni ko'tarib ketdi. Go'yo katta kaklik bu yerda ilgaridan ham yo'q edi (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 123-bet).

Mazkur baytdagi **xud** olmoshi nasriy tabdilda *katta kaklik* birikmalari bilan bog'liq. Chunki mazkur baytdan oldingi baytda osmonda katta burgut paydo bo'lgani hamda kakliklarni ovlash uchun pastga qarab sho'g'igani haqida so'z yuritilgan edi. Shu ma'noda "*Ki, go'yokim ul **xud** yo'q erdi nuxust*" misrasi "*go'yoki kaklik bu yerda yo'q edi*" degan ma'noni ifodalashi tabiiy. Demak, baytdagi **xud** so'zi zoonimlarga nisbatan ham ishlatalishi mumkinligiga ishora qilingan.

*Borining kelib **xudu** xaftoni oq,*

*Nekim kiyguluktur yasab oni oq* (Saddi Iskandariy, 134-bet)

Ma'nosi: *Bu qismning ustki-ichki libosidan tortib hamma narsasi oq matodan va oq tusda edi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 127-bet).

Mazkur baytdagi **xud-u xafton** birikmasi nasriy tabdilda aynan izohlanmagan. Lug'atlarda "xafton" – «короткий кафтан, архалук (подбитый щёлком-сырцом, надевавшийся под кальчугу)» deyilgan. Diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, forscha "xafton" va ruscha "кафтан" so'zları o'rtaida juda katta o'xshshlik mavjud, faqat har ikki so'zning ayrim harflarida farq bor xolos. ANATILda **xafton** so'ziga shunday izoh berilgan: *xafton-* sovut ostidan kiyiladigan to'n, *kaftan* [2,388]. Mazkur so'z ishtirok etgan quyidagi misol ham ANATILdan olindi:

*Sinonlar sarig' rang, qalqon dag'i,*

*Kejimlar sarig' jins, xafton dag'i* [2, 388].

O'zbek tilining etimoligik lug'atida **xafton** so'zi izohi keltirilmagan.

*Yana **xudlar** misli javshan kelib,*

*Qaro tunda xurshidi ravshan kelib* (Saddi Iskandariy, 136-bet)

Ma'nosi: *Bahaybat jez qalpoqlari javshanlariga o'xshab qora tunda xuddi quyoshdekkar yarqirab turardi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 129-bet).

Mazkur baytda *xud so'zi* tabdili berilmagan. E'tibor beradigan bo'lsak, baytning nazmiy variantidagi *xud so'zi* uning nasriy tabdilidagi "*bahaybat jez qalpoqlari*" qismiga moslashtirilgan. Bizningcha, *xud so'zining "bahaybat jez qalpoqlar"*ga aloqasi yo'q. Baytdan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, *xud so'zi* -lar ko'plik qo'shimchasini olgan. Bu olmoshning o'zbekcha (turkiy) -lar qo'shimchasi bilan kelishi Navoiy uslubiga xosdir. Shu ma'noda *xudlar so'zini o'zbekchaga o'zlari deya tabdil qilish* mumkin [11,37].

*Kelib nogah ul sho'xi xudroy anga,*

*Qadah tutsa yuz noz ila, voy anga!* (Saddi Iskandariy, 176-bet).

Ma'nosi: *Shunda nogoh o'sha sho'x o'jar uning qarshisiga o'tirib olib, yuz noz ila may qadahini tutaversa, uning holiga voy!* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 165-bet).

ANATILda *xud so'zi* asosida hosil bo'lgan qo'shma so'zlar izohlari ham keltirilgan. Biz ularning ayrimlarini keltiramiz:

*xudbin-faqat o'zinigina ko'ruvchi, boshqalarni nazar-pisand qilmovchi;*

*xudkom - faqat o'z manfaatini ko'zlovchi;*

*xudnamo - shuhratparast, o'zini ko'rsatishga intiluvchi;*

*xudparast – mutakabbir, xudbin;*

*xudroy - o'zbilarmon, o'jar, qaysar va hokazo.*

Demak, yuqoridagi baytda keltirilgan ***xudroy*** so'zi *sho'x, o'jar* deya to'g'ri izohlangan.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Navoiy asarlarida turkiy so'zlarning forsiy va arabiy sinonimlari ko'p uchraydi. Bu esa Navoiyning zullisonayn shoir ekanidan dalolatdir. Xususan, forsiy xud olmoshi ham "Saddi Iskandariy"da keng ko'lamda ishlatalgan. Barcha so'z turkumlari kabi olmosh ham fors-tojik tilida mustaqildir. Bu so'zning gapdagagi morfologik belgilari Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham kuzatiladi. Dostondagi "xud" so'zi hamda shu so'z asosida boshqa so'zlar yasalishi natijasida gapda nafaqat olmosh, balki ot, sifat, ravish turkumiga oid bo'lishi ham yuqoridagi misollardan ayon bo'lmoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusamatov M. Fors tili. –Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2007. –B.-114.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, "Фан" нашриёти, 3-жилд. 1983. –Б. -424.
3. Воҳидов Э. Сўз латофати. –Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2014.–Б.-13.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2002. –Б.73.
5. Раҳмон В. Мумтоз сўз сехри. –Тошкент, Ўзбекистон, 2015. –Б.-50.
6. Ражабова М. Навоий ижодида мотам маросимига оид урф-одатларнинг бадиий талқини. "Бадиий адабиётда нутқ ва услуб муаммолари" номли халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.-Фарғона, 2020. –Б.84-86.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. –Тошкент, Университет, 2009.-Б.-243.
8. Z.Alimova. AlisherNavoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida. Scientific journal of the Fergana State University.2023, -P. 639-643.
9. Z.Alimova. Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik nihatdan guruhanishi. Scientific journal of the Fergana State University.2023, -P. 380-383.
10. Z.Alimova. Tillarda o'zlashma so'zlarning mavzuiy jihatdan guruhanishi. Бюллетең педагогов нового Узбекистана. 2023, 1(4). 124-126.
11. AZ Vaxobovna. [On Some Persian-Tajik Plant Names in Navoy's Epos" Saddi Iskandari".](#) (2023)Texas Journal of Philology, Culture and History 18, 32-37.